

TIBBIY XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMLARIGA OID ILMIY YONDASHUVLAR VA ULARNING EVOLYUTSIYASI

Madraakhimov, Kakhramon

Doctor of Economic Sciences, Head of the Department of Economics., ORCID: 0009-0009-5198-2503., E-mail: madraximov_qaxramon@mamunedu.uz

Annotatsiya: *Mazkur maqolada tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga oid ilmiy yondashuvlar va ularning evolyutsiyasi tahlil qilingan. Zamonaviy boshqaruv konsepsiyalari, mexanizmning tarkibiy elementlari hamda xorijiy tajriba qiyosiy o'rganilib, tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning integratsiyalashgan tashkiliy-iqtisodiy modeli bo'yicha mualliflik yondashuvi taklif etilgan.*

Kalit so'zlar: *tibbiy xizmatlar, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm, sog'liqni saqlash, institutsional yondashuv, strategik boshqaruv, raqamli transformatsiya, Value-Based Healthcare, davlat-xususiy sheriklik, innovatsiyalar, tibbiy menejment, xizmatlar sifati, evolyutsiya.*

KIRISH

Zamonaviy sharoitda tibbiy xizmatlar sohasini samarali rivojlantirish sog'liqni saqlash tizimining barqaror faoliyatini ta'minlash, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning takomillashuvi resurslardan oqilona foydalanish, boshqaruv samaradorligini oshirish hamda innovatsion va raqamli texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid ilmiy yondashuvlarning evolyutsiyasini o'rganish, ularning zamonaviy tendensiyalarini tizimli tahlil qilish hamda O'zbekiston sharoitiga mos tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga oid ilmiy yondashuvlarning evolyutsiyasini o'rganishda tizimli, institutsional va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning nazariy asosi sog'liqni saqlash iqtisodiyoti, strategik menejment va institutsional iqtisodiyot yo'nalishidagi ilmiy ishlanmalar, shuningdek, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO), IHTT, Jahon banki hamda boshqa xalqaro tashkilotlarning hisobotlaridan tashkil topgan. Ilmiy manbalarni umumlashtirish, mantiqiy tahlil, sintez, induksiya va deduksiya usullari orqali tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarning tarkibiy elementlari hamda ularning rivojlanish bosqichlari tizimlashtirildi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi qiyosiy tahlil asosida baholanib, ularning O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimida qo'llash imkoniyatlari aniqlandi. Olingan natijalar asosida tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga doir mualliflik konseptual yondashuvi shakllantirildi.

Adabiyotlar tahlili. Tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga oid ilmiy qarashlar iqtisodiyot, menejment, sog‘liqni saqlashni boshqarish va institutsional iqtisodiyot nazariyalarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Mazkur yo‘nalishdagi dastlabki tadqiqotlarda tibbiy xizmatlarni boshqarish asosan resurslardan oqilona foydalanish, tashkiliy tuzilmani takomillashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan yoritilgan. P. Drucker, H. Mintzberg va M. Porterlarning ilmiy ishlari strategik boshqaruv, raqobat ustunligi hamda natijadorlikka yo‘naltirilgan menejment tamoyillarining sog‘liqni saqlash tizimida qo‘llanilishiga nazariy asos yaratgan (Drucker, 1973; Mintzberg, 1994; Porter, 1985). Institutsional iqtisodiyot vakillari D. North va O. Williamson sog‘liqni saqlash tizimining samaradorligi me‘yoriy-huquqiy muhit, mulkchilik shakllari va boshqaruv institutlarining rivojlanish darajasiga bog‘liqligini asoslab berishgan. Ularning fikricha, samarali institutlar resurslardan foydalanish xarajatlarini kamaytirish, manfaatlar muvozanatini ta‘minlash va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi (North, 1990; Williamson, 1985). Mazkur yondashuv keyinchalik sog‘liqni saqlash tizimida institutsional islohotlar, davlat-xususiy sheriklik hamda sog‘liqni saqlashni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlarning metodologik asosiga aylandi. 1990-yillardan boshlab sog‘liqni saqlash boshqaruvida “New Public Management” konsepsiyasi keng rivojlandi. C. Hood hamda D. Osborne va T. Gaebler tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv davlat xizmatlarini boshqarishda natijadorlik, iqtisodiy samaradorlik, raqobat elementlari va mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv tamoyillarini ilgari surgan (Hood, 1991; Osborne & Gaebler, 1992). Natijada sog‘liqni saqlash muassasalarida strategik rejalashtirish, faoliyat natijalarini baholash va boshqaruvning zamonaviy usullaridan foydalanish keng qo‘llanila boshlandi. So‘nggi yillarda ilmiy adabiyotlarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishi sifatida “Value-Based Healthcare” konsepsiyasi alohida o‘rin egallamoqda. M. Porter va E. Teisberg tomonidan ishlab chiqilgan mazkur yondashuv sog‘liqni saqlash tizimining asosiy maqsadi ko‘rsatilgan xizmatlar hajmini emas, balki bemor uchun yaratilgan qiymatni oshirishdan iborat ekanligini ta‘kidlaydi (Porter & Teisberg, 2006). Ushbu konsepsiya xizmatlar sifati, klinik natijalar, bemor qoniqishi hamda xarajatlar samaradorligini yagona tizimda baholash imkonini beradi.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO), OECD va Jahon banki hisobotlarida tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning zamonaviy omillari sifatida raqamli transformatsiya, elektron sog‘liqni saqlash tizimlari, telemeditsina, sun‘iy intellekt texnologiyalari, profilaktik tibbiyot va integratsiyalashgan boshqaruv modellari ustuvor yo‘nalishlar sifatida e‘tirof etiladi (WHO, 2021; OECD, 2023; World Bank, 2024). Mazkur yondashuvlar xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish bilan birga, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishga ham xizmat qilmoqda. Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda ham tibbiy xizmatlar bozorini rivojlantirishning iqtisodiy va boshqaruv jihatlariga alohida e‘tibor qaratilgan. S. M. Rahimova tibbiy xizmatlar bozorini tashkil etishning xorijiy tajribalarini o‘rganib, ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirishda davlat tomonidan tartibga solish, xususiy sektorni qo‘llab-quvvatlash va hududiy infratuzilmani rivojlantirishning ustuvor ahamiyatini asoslaydi. Shuningdek, olimlar tibbiy xizmatlarni aholining turmush darajasini oshirish va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omillardan biri sifatida

baholaydi (Rahimova, 2024; 2026). D. I. Vaisovning ilmiy tadqiqotlarida esa tibbiy xizmatlar bozorida tadbirkorlikni rivojlantirish, tibbiy xizmat ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini baholash hamda zamonaviy rivojlanish tendensiyalari chuqur tahlil qilingan. Muallif tibbiy xizmatlar samaradorligini oshirishda innovatsion boshqaruv, marketing strategiyalari, moliyaviy barqarorlik va raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, tibbiy xizmatlar bozorida raqobatbardoshlikni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari hamda kichik biznes subyektlarining roliga oid xulosalari mazkur tadqiqot uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi (Vaisov, 2025a; 2025b; 2025c).

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida tashkiliy, institutsional, moliyaviy, innovatsion va raqamli mexanizmlarning o'zaro integratsiyasi yagona tizim sifatida kompleks tahlil qilinmagan. Shu bois mazkur tadqiqotda tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari evolyutsiyasi ilmiy yondashuvlar asosida umumlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligini aks ettiruvchi konseptual modelni ishlab chiqish va O'zbekiston sharoitiga moslashtirish asosiy ilmiy vazifalardan biri sifatida qoraladi.

Tahlil va natijalar. Tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ilmiy jihatdan asoslash maqsadida mavjud nazariy yondashuvlar, mexanizmning tarkibiy elementlari hamda ilg'or xorijiy tajribalar qiyosiy tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari uchta analitik jadval orqali tizimlashtirilib, ularning o'zaro bog'liqligi va evolyutsion rivojlanish bosqichlari yoritildi. Mazkur tahlillar asosida tibbiy xizmatlar sohasini boshqarishning zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari hamda muallifning konseptual yondashuvi shakllantirildi.

1-Jadval. Tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga oid ilmiy yondashuvlarning evolyutsiyasi

Ilmiy yondashuv	Asosiy mazmuni	Afzalliklari	Cheklovlari	Izoh
Klassik boshqaruv yondashuvi	Resurslarni rejalashtirish va nazorat qilish	Tashkiliy intizomni kuchaytiradi	Moslashuvchanligi past	Boshlang'ich boshqaruv modeli
Institutsional yondashuv	Huquqiy-me'yoriy muhit va institutlar rolini kuchaytiradi	Barqaror boshqaruvni ta'minlaydi	Islohotlarga bog'liq	Tibbiy xizmatlar rivojlanishining asosi
Tizimli yondashuv	Tibbiy xizmatlarni yagona tizim sifatida ko'radi	Barcha elementlarni integratsiyalaydi	Murakkab boshqaruvni talab qiladi	Eng maqbul ilmiy yondashuv
Strategik boshqaruv	Uzoq muddatli rivojlanishga yo'naltiriladi	Raqobatbardoshlikni oshiradi	Prognoz aniqligiga bog'liq	Zamonaviy boshqaruvning negizi
New Public Management	Natijadorlik va samaradorlikni oshirish	Xizmat sifati oshadi	Davlat nazoratini murakkablashtiradi	Davlat tibbiyotida muhim
Value-Based Healthcare	Bemor uchun yaratilgan qiymatni	Xarajatlarni optimallashtiradi	O'lchash murakkab	Zamonaviy global konsepsiya

	maksimal oshirish			
--	----------------------	--	--	--

Mazkur jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlariga oid ilmiy yondashuvlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda sog'liqni saqlash tizimida yuz bergan institutsional o'zgarishlar ta'sirida izchil evolyutsiyalashib borgan. Dastlabki klassik boshqaruv yondashuvi resurslarni rejalashtirish va nazorat qilishga ustuvor ahamiyat bergan bo'lsa, keyinchalik institutsional va tizimli yondashuvlar sog'liqni saqlash tizimini o'zaro bog'liq elementlardan tashkil topgan murakkab tizim sifatida talqin eta boshladi. Strategik boshqaruv konsepsiyasining rivojlanishi esa tibbiy tashkilotlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishi, raqobatbardoshligi hamda tashqi muhit o'zgarishlariga moslashuvchanligini ta'minlashga xizmat qildi.

So'nggi yillarda "New Public Management" va "Value-Based Healthcare" konsepsiyalarining keng qo'llanilishi sog'liqni saqlash boshqaruvida natijadorlik, bemor manfaatlari va iqtisodiy samaradorlikni ustuvor mezonlar sifatida shakllantirdi. Ushbu yondashuvlar xizmatlar sifatini oshirish bilan bir qatorda mavjud resurslardan oqilona foydalanish hamda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkonini yaratmoqda. Demak, tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini shakllantirish turli ilmiy yondashuvlarning afzalliklarini integratsiyalashni talab etadi. Mazkur evolyutsiya O'zbekistonda ham sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishning nazariy asoslarini belgilashda muhim metodologik ahamiyat kasb etishi mumkin.

2-Jadval.Tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining tarkibiy elementlari

Mexanizm elementi	Asosiy funksiyasi	Asosiy instrumentlari	Kutilayotgan natija	Muallif bahosi
Institutsional mexanizm	Tartibga solish	Qonunchilik, standartlar, litsenziya	Barqaror boshqaruv	Asosiy tayanch
Tashkiliy mexanizm	Boshqaruvni tashkil etish	Menejment, rejalashtirish, monitoring	Samaradorlik	Muvofiqlashtiruvchi bo'g'in
Moliyaviy mexanizm	Mablag'larni boshqarish	Sug'urta, byudjet, DXSh	Moliyaviy barqarorlik	Rivojlanish omili
Innovatsion mexanizm	Texnologiyalarni joriy etish	AI, telemeditsina, robotlashtirish	Sifat oshadi	Raqobat ustunligi
Marketing mexanizmi	Bozorni rivojlantirish	Brending, CRM, reklama	Bemorlar soni ortadi	Talabni shakllantiradi
Raqamli mexanizm	Axborot boshqaruvi	HIS, EHR, Big Data	Shaffoflik	Zamonaviy boshqaruv
Kadrlar mexanizmi	Inson kapitalini rivojlantirish	Malaka oshirish, motivatsiya	Professional xizmat	Strategik resurs

Yuqoridagi jadval tahlili tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi o'zaro bog'liq bo'lgan bir necha tarkibiy elementlardan tashkil topgan yaxlit boshqaruv tizimi ekanligini ko'rsatmoqda. Mazkur tizimda institutsional mexanizm me'yoriy-

huquqiy muhitni shakllantirsa, tashkiliy mexanizm boshqaruv jarayonlarini muvofiqlashtirish va resurslardan samarali foydalanishni ta'minlaydi. Moliyaviy mexanizm esa byudjet mablag'lari, tibbiy sug'urta, investitsiyalar hamda davlat-xususiy sheriklik vositalari orqali tizimning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlaydi. Innovatsion va raqamli mexanizmlar zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biriga aylanib, sun'iy intellekt, telemeditsina, elektron tibbiy kartalar va raqamli boshqaruv platformalari orqali xizmatlar sifati hamda boshqaruvning tezkorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Marketing mexanizmi bemor ehtiyojlarini o'rganish, xizmatlarni bozor talabiga moslashtirish va tibbiy tashkilotlarning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qilsa, kadrlar mexanizmi barcha jarayonlarning samarali ishlashini ta'minlovchi strategik resurs sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, mazkur elementlarning o'zaro integratsiyasi tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va sog'liqni saqlash tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omil hisoblanadi.

3-Jadval.Xorijiy mamlakatlarda tibbiy xizmatlarni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari va O'zbekiston uchun ahamiyati

Mamlakat	Asosiy mexanizm	Kuchli jihati	O'zbekiston uchun ahamiyati	Ta'sir darajasi
Buyuk Britaniya	NHS integratsiyalashgan boshqaruvi	Umumiy qamrov	Integratsiyalashgan boshqaruv modeli	Juda yuqori
Germaniya	Majburiy tibbiy sug'urta	Moliyaviy barqarorlik	Sug'urta tizimini rivojlantirish	Yuqori
Singapur	Natijadorlikka asoslangan boshqaruv	Yuqori samaradorlik	Xarajatlarni optimallashtirish	Yuqori
Janubiy Koreya	Digital Health	To'liq raqamlashtirish	Elektron sog'liqni saqlash	Juda yuqori
Turkiya	Davlat-xususiy sheriklik	Zamonaviy infratuzilma	DXSh loyihalarini kengaytirish	Yuqori
Yaponiya	Profilaktik tibbiyot va uzoq umr siyosati	Sog'lom qarish	Profilaktika tizimini kuchaytirish	Istiqbolli

Keyingi tahliliy jadval rivojlangan mamlakatlarda tibbiy xizmatlarni boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari turli milliy modellarga asoslangan bo'lsa ham, ularni birlashtiruvchi umumiy tamoyillar mavjudligini ko'rsatmoqda. Buyuk Britaniyada integratsiyalashgan sog'liqni saqlash tizimi, Germaniyada majburiy tibbiy sug'urta, Singapurda natijadorlikka asoslangan boshqaruv, Janubiy Koreyada to'liq raqamlashtirilgan sog'liqni saqlash tizimi hamda Turkiyada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining muvaffaqiyatli qo'llanilishi tibbiy xizmatlar sifati va iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qilmoqda. Yaponiya tajribasi esa profilaktik tibbiyot va sog'lom qarish siyosatining uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy natijalarini namoyish etadi. Mazkur amaliy tajribalar tibbiy xizmatlar rivojlanishining muvaffaqiyati alohida boshqaruv instrumentiga emas, balki institutsional islohotlar, moliyalashtirish tizimi, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarning uyg'unlashgan holda qo'llanilishiga bog'liqligini tasdiqlaydi. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribalarni bevosita ko'chirish emas, balki milliy sog'liqni saqlash tizimining iqtisodiy, institutsional va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda moslashtirish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, davlat-

xususiy sheriklikni rivojlantirish, tibbiy sug'urta mexanizmlarini takomillashtirish hamda raqamli sog'liqni saqlash infratuzilmasini kengaytirish tibbiy xizmatlar sifatini va sohaning raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etiladi. Mazkur xorij tajribalari O'zbekistonda tibbiy xizmatlar ko'rsatishda zamonaviy tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Muhokama. Olib borilgan tahlillarimizga ko'ra, tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari tarixan klassik boshqaruv yondashuvlaridan boshlab, institutsional iqtisodiyot, strategik menejment, "New Public Management va Value-Based Healthcare" konsepsiyalarigacha izchil tarzda evolyutsiyalangan. Mazkur evolyutsiya natijasida sog'liqni saqlash tizimini boshqarishda resurslarni taqsimlashdan tashqari, xizmat sifati, bemor manfaatlari, boshqaruv samaradorligi va innovatsion rivojlanish ustuvor ahamiyat kasb eta boshlagan. Shuningdek, tadqiqotimiz natijalari tibbiy xizmatlar samaradorligi alohida boshqaruv vositalarining qo'llanilishiga emas, balki institutsional, tashkiliy, moliyaviy, innovatsion, marketing, raqamli va kadrlar mexanizmlarining o'zaro uyg'unlashgan holda faoliyat yuritishiga bog'liqligini tasdiqlamoqda. Xorijiy mamlakatlar tajribasi ham aynan kompleks boshqaruv modeli xizmatlar sifati, moliyaviy barqarorlik va aholining tibbiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda yuqori natijalar berayotganini ko'rsatadi.

Yuqoridagi ilmiy tahlillarimizga asoslangan holda "tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini institutsional boshqaruv, moliyaviy barqarorlik, raqamli transformatsiya, innovatsion rivojlanish, sifat menejmenti va inson kapitalining o'zaro integratsiyasiga tayanuvchi ko'p komponentli boshqaruv tizimi" sifatida talqin etish lozim deb hisoblaymiz. Ushbu yondashuvimizning o'ziga xos jihati shundaki, unda boshqaruv mexanizmi alohida funksional elementlar yig'indisi emas, balki davlat siyosati, bozor mexanizmlari, tibbiyot tashkilotlari va iste'molchilar manfaatlarini yagona tizimda uyg'unlashtiruvchi dinamik model sifatida qaraladi. Fikrimizcha, aynan shunday integratsiyalashgan yondashuv O'zbekistonda tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, resurslardan foydalanish samaradorligini kuchaytirish va sog'liqni saqlash tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim metodologik asosi hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqotimiz natijalari tibbiy xizmatlar sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari boshqaruv nazariyalari evolyutsiyasi bilan uzviy bog'liq holda takomillashib borganligini ko'rsatdi. Zamonaviy sharoitda sog'liqni saqlash tizimining samaradorligi alohida boshqaruv vositalaridan ko'ra, institutsional, tashkiliy, moliyaviy, innovatsion, raqamli va inson kapitali mexanizmlarining o'zaro integratsiyasi orqali ta'minlanishi ilmiy jihatdan asoslandi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda strategik boshqaruv, raqamli transformatsiya, davlat-xususiy sheriklik va natijadorlikka yo'naltirilgan boshqaruv tamoyillarining muhim o'rin tutishini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalariga tayangan holda quyidagi takliflarimizni keltirishni lozim deb hisoblaymiz: birinchidan, tibbiy xizmatlarni boshqarishda institutsional va tashkiliy mexanizmlarni yagona integratsiyalashgan model asosida takomillashtirish; ikkinchidan, moliyalashtirishning diversifikatsiyasini ta'minlash orqali tibbiy sug'urta va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish; uchinchidan, sun'iy intellekt, telemeditsina va elektron sog'liqni saqlash platformalarini boshqaruv jarayonlariga keng joriy etish; to'rtinchidan, tibbiy

xizmatlar sifatini natijadorlik ko'rsatkichlari va bemor qoniqishi mezonlari asosida kompleks baholash tizimini takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi tibbiy xizmatlar sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish hamda O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Drucker, P. F. (1973). *Management: Tasks, responsibilities, practices*. Harper & Row.
2. Vaisov, D. (2023). Kichik firmalar raqobatbardoshligini oshirishning mintaqaviy muammolari (Xorazm viloyati misolida). *Green Economy and Development*, 1(11).
3. Sa'dullayev, A., Vaisov, D., & Egamberganov, F. (2023). Mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishi tahlili (Xorazm viloyati misolida). *Green Economy and Development*, 1(6).
4. Vaisov, D. I. (2026). *Prospects for the development of small business entities in the medical services market*.
5. Vaisov, D. I. (2026). Directions for improving organizational mechanisms to ensure competitiveness of small businesses providing medical services. *International Conference on Science & Technology*, 2(1), 108–115.
6. Vaisov, D. (2025). Tibbiy xizmatlar ko'rsatuvchi kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini baholashni takomillashtirish. *Marketing Jurnal*, 11(240874), 286–295.
7. Vaisov, D. (2024). Raqobatbardoshlik tushunchalarining mohiyati va tavsiflanishi. *University Research Base*, 65–69.
8. Ibodullayevich, V. D. (2026). Stages of improving the mechanisms for ensuring the competitiveness of small business entities providing medical services. *Научный Импульс*, 4(41), 86–92.
9. Ibodullayevich, V. D. (2024). Xorijiy mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining raqobatbardoshligini ta'minlashdagi ilg'or tajribalar. *Marketing Jurnal*, 28–37.
10. Ibodullayevich, V. D. (2026). International practices of innovation ecosystems and technological transformation in enhancing the financial competitiveness of small business entities. *Arabian Journal of Science*, 3(7), 475–483.
11. Vaisov, D., & Madraximov, Q. (2026). Kichik biznes subyektlarining investitsion salohiyatini baholashning hududiy xususiyatlari. *Muhandislik va Iqtisodiyot*, 4(7), 279–283.
12. Ibodullaevich, V. D., Kamil, S., & G'anibekovich, Y. A. (2026). The impact and significance of competitive environment analysis on the competitiveness of entrepreneurs. *Manuscript on Sustainable Economics, Finance, and Management*. (Manuscript submitted).
13. Vaisov, D. I., & Sharipov, I. (2026). Технико-экономические основы оказания медицинских услуг.
14. Ibodulayevich, V. D., & Sharipov, I. (2026). Основные концептуальные подходы в маркетинге медицинских услуг. *Eurasian Journal of Human Health and Disease*, 2(2), 1–6.

15. Ibodullayevich, V. D. (2025). Tibbiy xizmatlar bozorida tadbirkorlikni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy omillari tahlili. *Marketing Jurnal*, 282–291.
16. Vaisov, D. (2025). Tibbiy xizmatlar ko'rsatishning zamonaviy xususiyatlari. *Ma'mun Science*, 3(10), 76–84.
17. Salayev, S. K., & Vaisov, D. I. (2025). Tibbiy xizmatlar bozorida kichik biznes va xususi tadbirkorlik rivojlanishi tahlili. *Ma'mun Axborotnomasi*, 2(1), 58–63.
18. Madraximov, Q., Matkarimov, M., Yakubov, A., & Nurjonov, J. Methodological approaches to assessment of entrepreneurial ability. *American Journal of Business Management, Economics and Banking. ISSN (E)*, 2832-8078.
19. Matkarimov, M., Madraximov, Q., Sherjonov, S., & Nurjonov, J. The Purpose OF Assessing A Person's Entrepreneurial Capacity is to Classify Their Quality Characteristics. *Green Economy and Development*, 3(8), 666659.
20. Egamberganovich, M. Q. (2025). MINTAQALAR KESIMIDA IQTISODIY NOMUTANOSIBLIKLA VA ULARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (13. I), 2085-2097.
21. Egamberganovich, M. Q., & Dilshodbekovna, S. M. (2025). O 'ZBEKISTON MINTAQALARI BO'YICHA IQTISODIY NOMUTANOSIBLIK LARNING KONVERGENTSIYA KO 'RSATKICHLARI TAHLILI. *Journal of marketing, business and management*, 4(6), 47-54.
22. Egamberganovich, M. Q. (2026). RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA SUN'IIY INTELLEKTNING AHAMIYATI. *Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика)*, (14. I), 927-935.
23. Мадрахимов, К. Э. (2024). ХУДУДЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШИНИНГ НОМУТАНОСИБЛИГИНИ БАРТАРАФ ЭТИШ УСУЛЛАРИ. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(07), 193-201.
24. Мадрахимов, К. Э. (2024). РЕСПУБЛИКА ХУДУДЛАРИНИНГ ИҚТИСОДИЙ РИВОЖЛАНИШ ДАРАЖАСИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШ. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(05), 126-131.
25. Мадрахимов, К. Э. (2024). МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТНИНГ МАҚСАДЛИ АМАЛГА ОШИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ. *Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting*, 4(04), 231-239.
26. МАДРАХИМОВ, К. (2024). МИНТАҚАВИЙ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТНИНГ СТРАТЕГИК УСТУВОР ЙЎНАЛИШЛАРИ. *SCIENCEPROBLEMS. UZ Учредители: ООО "Scienceproblems team"*, 4, 152-161.
27. Hood, C. (1991). A public management for all seasons? *Public Administration*, 69(1), 3–19.
28. Kaplan, R. S., & Norton, D. P. (1996). *The balanced scorecard: Translating strategy into action*. Harvard Business School Press.
29. Mintzberg, H. (1994). *The rise and fall of strategic planning*. Free Press.
30. North, D. C. (1990). *Institutions, institutional change and economic performance*. Cambridge University Press.

31. OECD. (2023). *Health at a glance 2023: OECD indicators*. OECD Publishing.
32. Osborne, D., & Gaebler, T. (1992). *Reinventing government: How the entrepreneurial spirit is transforming the public sector*. Addison-Wesley.
33. Porter, M. E. (1985). *Competitive advantage: Creating and sustaining superior performance*. Free Press.
34. Porter, M. E., & Teisberg, E. O. (2006). *Redefining health care: Creating value-based competition on results*. Harvard Business School Press.
35. Rahimova, S. M. (2024). *Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda tibbiy xizmatlar bozorini tashkil etishning xorijiy tajribalari*. Ma'mun akademiyasi ilmiy jurnali, 4, 43–50.
36. Rahimova, S. M. (2026). *Mintaqada aholi turmush darajasini oshirishda tibbiy xizmatlarni tashkil etishning ahamiyati*. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.
37. Williamson, O. E. (1985). *The economic institutions of capitalism*. Free Press.
38. World Bank. (2024). *World development report 2024*. World Bank.
39. World Health Organization. (2021). *Global strategy on digital health 2020–2025*. World Health Organization.
40. World Health Organization. (2024). *World health statistics 2024: Monitoring health for the SDGs*. World Health Organization.